



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAP BO'LAKLAR NAZARIYASI VA
EGA VA KESIM

Abduxalilova Xurshida Ilxomjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

E-mail: xurshidaabduxalilova06@gmail.com

Ilmiy rahbar: Muqimjon Axunov Muhammadaminovich

(PhD) filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

E-mail: muqumjon.axunov@bk.ru

Annotatsiya: *Ingliz va o'zbek tillarida gap bo'laklar nazariyasi va ega va kesimni o'rganish obyekti sifatida leksik-semantik jarayonlarini va ularning tarkibiy tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan semantikasini o'rganish. Shu asosda ularni Ingliz va o'zbek tillarida gap bo'laklar nazariyasi va ega va kesimlarini o'rganish obyekti sifatida so'zlar bilan qiyoslash, har ikkala til uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni umumlashtirish va shu asnoda qiyoslanayotgan tillarning har biriga xos bo'lgan hodisalarni ochib berishdir.*

Kalit so'zlar: *leksik, semantik, gap, gap bo'laklari, tilshunoslik, ega, kesm.*

Biz bilamizki, har bir til grammatikasida morfologiya va sintaksis bo'limlari mavjud. Morfologiya – so'z turkumlari va ularning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini o'rgansa, sintaksis – so'z birikmasi va gap, gap bo'laklarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Ingliz va o'zbek tillarining grammatik tizimida ham aynan shunday. Ingliz tili gap bo'laklari borasida ko'pgina tilshunos olimlarning turli ilmiy qarashlar va nazariyalari mavjud. Jumladan, Ilishning nazariyasiga to'xtaladigan bo'lsak, umuman gap bo'laklari – 2 ga bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi.

Bosh bo'laklar – ega va kesim. Ikkinchi darajali bo'laklar – aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.

Xo'sh, biz egani aqanday aniqlay olamiz? Qanday so'zni biz ega deb ayta olamiz?

Umumiy nuqtai nazardan egaga aniq qoida berib ko'ramiz. Zamonaviy ingliz tilida ega qisqa va lo'nda ta'riflanadi.

Rus tilida quyidagi fikrlarda mujassamlashgan.

1) eganing ma'nosi gapda qanday fikrlarni ifodalashi;

2) gapdagi sintaktik aloqasi;

Morfologik ifodalanishi.

Ega gapning 2 ta asosiy bo'laklaridan biri hisoblanadi.



- 1) U kesim orqali ifodalanadigan, narsa va hodisalarni bildiradi;
- 2) U birorta boshqa gap bo'laklariga tobe bo'lmaydi;
- 3) U turli so'z turkumlari orqali ham ifodalanishi mumkin.

Ba'zi hollarda biz egani aniqlash borasida muammolarga duch kelamiz.

Masalan, Lauriksning quyidagi gapini olaylik:

It gave Hermione a sudden convulsive sensation of pleasure, to see these rich colours under the candlelight.

Bu yerda 2 xil qarashni kuzatishimiz mumkin.

Birida gapning boshida kelgan "it" olmoshni formal ega deb olishimiz mumkin, haqiqiy ega esa alohida olingan "to see" infinitivi deyishimiz mumkin.

Lekin ikkinchi tomondan qaraydigan bo'lsak, "it" – gapning egasi, infinitiv esa aksincha.

Yuqorida, biz egaga ta'rif berganimizda, kesimni ham egaga bog'ladik. Darhaqiqat, kesim ham egadek gapning bosh bo'laklaridan biridir. Kesim:

- 1) Ega orqali ifodalangan narsa yoki hodisaning bildiradi;
- 2) U ham ega singari boshqa biror bo'lakka tobe bo'lmaydi.
- 3) Kesim turlicha ifodalanishi mumkin.

"finite verb + infinite", "link verb + noun", "link verb + adjective", "link verb + preposition + noun" va hokazolar. Keyinroq bunga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Gap bo'laklari mavzusini yoritishdan avval, biz gapning o'ziga to'xtalib o'tsak.

Gap – nutqning eng kichik bo'lagidir. Gap gap so'z tartibi va intonatsiya (ohang) dan iborat. Gap deb tugallangan fikrni ifodalovchi so'zlar yig'indisiga aytiladi.

The sun rises in the east.

Quyosh sharqdan chiqadi.

Gapning asosiy belgisi kesimidir. Yana bir belgi yuqorida aytib o'tganimizdek intonatsiya (ohang) dir. Boshqa biri modallikdir. Gap so'zlovchining biror maqsadini bildiradi. So'zlovchi gap orqali habar beradi. Biror predmetni yoki harakatni, yoki belgini aniqlamoqchi bo'ladi, tinglovchini biror ishga undaydi, buyuradi. Shunga ko'ra gaplar quyidagi turlarga bo'linadi ya'ni, maqsadga ko'ra.

a) darak gaplar (declarative sentences):

The library is on the second floor

Kutubxona ikkinchi qavatda.

b) so'roq gaplarga (interrogative sentences):

When did you come?

Siz qachon keldingiz?

v) undov gaplarga (exclamation sentences):

How well she sings!



U qanday yaxshi kuylaydi!

Gapning tarkibiga kiruvchi va birorta so'roqqa javob bo'luvchi so'zlar gap bo'laklari deb ataladi.

Gap bo'laklari bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi. Bosh bo'laklarga ega va kesim kiradi. Ikkinchi darajali bo'laklariga to'ldiruvchi (the object), aniqlovchi (the attributive) va hol (adverbial modifier) kiradi. Bularni yuqorida, Ilishning nazariyasida sanab o'tdik.

Tuzilishiga ko'ra gaplar quyidagi gaplarga bo'linadi.

- 1) simple extended sentence sodda yoyiq gap.
- 2) simple unextended sentence sodda yig'iq gap.
- 3) elliptical sentence to'liqsiz gap.
- 4) compound sentence qo'shma gap.

Misollar:

The steamer arrived at the port yesterday

paraxod kecha portga yetib keldi. (sodda yoyiq gap).

The sun shines – quyosh nur sochadi. (sodda yig'iq gap).

- Your name? – ismingiz?

- Your age? – yoshingiz? (to'liqsiz gap).

The agreement was signed, and the delegation left London

Bitim imzolandi va delegatsiya Londonni tark etdi.

(bog'langan qo'shma gap).

After the goods had been unloaded, they were taken to the warehouse

Tovarlar tushirilganidan keyin, ular omborxonaga olib boriladi.

(ergashgan qo'ma gap).

Yuqorida aytib o'tganimizdek Gap bo'laklari 2 guruhdan, bosh xamda ikkinchi darajali bo'laklaridan iborat.

Ega va unga qarashli bo'lgan ikkinchi darajali bo'laklar ega guruhini (yoyiq ega) tashkil qiladi. Kesim va unga qarashli bo'lgan ikkinchi darajali bo'lar kesim guruhini (yoyiq kesim)ni tashkil qiladi:

Ega guruhi

The blue car

The manager of our office

Kesim guruhi

stopped at the gate

has received a telegram

Gapdagi so'zlarning qaysi bo'lak ekanligini bilish uchun, ushbu so'zlarning qaysi so'z turkumiga doirligini bilish kerak.

I have a good dog



Myening yaxshi itim bor.

I- olmosh, bu gapda u ega bo'ladi, have- fe'l (kesim) a -noaniq artikl,
good-sifat, bu gapda aniqllovchi, dog- it, bu gapda u to'ldiruvchi. I have- ega va kesim- bosh bo'laklar.

a good dog- aniqllovchi va to'ldiruvchi- ikkinchi darajali bo'laklar.

Har qanday o'rganilayotgan yangi mavzu, o'sha tilning aktiv kommunikatsiyasi uchun xizmat qilishi shart. Til o'rganuvchi va o'rgatuvchining ham oliy maqsadi o'rganilgan til manbasini og'zaki nutqda qo'llash bo'lmog'i lozim.

Hozirgi islohotlar davrida ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablardan biri bu darslarni noana'naviy tarzda, yangi pedagogik texnologiyalar asosida, axborot texnologiyalar yordamida tashkil etishdan iborat. Shu o'rinda o'quvchilarga yangi grammatik mavzuni tushuntirishning metodik jixatlari hafida fikr yuritmoqchimiz. Yangi mavzuni boshlashdan avval o'qituvchi o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha nazorat, amaliy bilimlarini qay darajada ekanligi haqida hulosaga ega bo'lmog'i ham muhim xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonov X. Ahmedov Q. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent "O'qituvchi", 1978.
2. Barxudarov L.S. Shtelling D.A. Grammatika Angliyskogo yazыka. Moskva, "Vysshaya shkola", 1963.
3. Blokh M.Y.A. Theoretical course of English grammar. Moskva, "Prosvesheniye", 1982.
4. Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1973.
5. Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1978.
6. Dadaboyeva T. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent, "Fan", 2007.
7. Jalilov J. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.
8. Iyish. B.A. The structure of modern English. Leningrad, "Prosvesheniye", 1971.
9. Iofik L.L. Chakhayan L.P. Readings in the theory of English grammar. Leningrad, "Prosvesheniye", 1981.
10. Ivanova I.V. Burlakova V.S. Pochepsov G.G. Teoriticheskaya grammatika angliyskogo yazыka. Moskva, "Vysshaya shkola", 1980